

## “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA QURBONBIBI OBRAZI

**Xudoymurodova Xuriyat Muxiddinovna,**  
Termiz davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

## ОБРАЗ КУРБОНБИБИ В РОМАНЕ «КЕЧА ВА КУНДУЗ»

**Худоймуродова Хурият Мухиддиновна,**  
Термезский государственный университет, доктор философии  
(PhD) по филологическим наукам

## THE CHARACTER OF QURBONBIBI IN THE NOVEL “KECHA VA KUNDUZ”

**Khudoymurodova Khuriyat Mukhiddinovna,**  
Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philological Sciences



E-mail:  
[hudoymurodovaxurriyat@  
gmail.com](mailto:hudoymurodovaxurriyat@gmail.com)  
Orcid: 0000-0003-4768-  
8503

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanidagi Qurbonbibi obrazi tahlili berilgan. Qurbonbibi obrazida mujassamlashgan tamoyillarning barchasi ham muhitning ta'sirida yuzaga chiqqan. Shu jihatdan, uning xarakteriga ham, xatti-harakatlariga ham, hissiyot va kechinmalariga ham o'zining ta'sirini o'tkaza olgan. Qurbonbibidagi fazilatlar ham davr va muhitning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikrlarida ham shu davr muhri o'zining yorqin izini qoldira olgan. Maqolada biz bir o'zbek onasining haqiqiy siymosini ko'ramiz.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy romanlar, Cho'lpon, o'zbek onasi, Qurbonbibi, Zebi, Razzoq so'fi, xarakter, badiiy obraz.

**Аннотация:** В данной статье представлен анализ образа Курбонбиби в романе Чолпона «Кеча ва Кундуз» («Ночь и День»). Все черты, воплощённые в образе Курбонбиби, сформированы под влиянием окружающей среды. В этом отношении и её характер, и поведение, и чувства, и переживания находятся под воздействием времени и социума. Добродетели Курбонбиби также проявляются как отражение эпохи и среды, в которой она живёт. В её мыслях и мировоззрении чётко ощущается печать того времени. В статье раскрывается подлинный образ узбекской матери через персонаж Курбонбиби.

**Ключевые слова:** современный роман, Чолпон, узбекская мать, Курбонбиби, Зеби, Раззоқсуфи, характер, художественный образ.

**Annotation:** This article presents an analysis of the character Qurbonbibi in Cholpon's novel “Kecha va Kunduz” (“Night and Day”). All the traits embodied in Qurbonbibi's character are shaped under the influence of her social environment. Accordingly, her personality, actions, emotions, and feelings are significantly affected by the conditions of her time. The virtues of Qurbonbibi also emerge as a reflection of the era and the socio-cultural setting in which she lives. Her thoughts and worldview clearly bear the imprint of that historical period. Through the character of Qurbonbibi, the true image of an Uzbek mother is vividly depicted in the article.

**Keywords:** modern novels, Cholpon, Uzbek mother, Qurbonbibi, Zebi, Razzoq Sofi, character, literary image.

**KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION.** Zamonaviy-ijtimoiy romanlarda ona timsolining aks etishi mavzusi bo'lib, ayni paytda har bir milliy adabiyotda o'ziga bugungi adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ona obrazi barcha madaniyatlarda universal ahamiyatga ega bo'lib, ayni paytda har bir milliy adabiyotda o'ziga xos talqin etiladi. Zamonaviy jamiyatda ro'y

berayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ona obrazi talqiniga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy adabiyotda ona timsoli ko'p qirrali va murakkab xususiyatga ega. Birinchidan, an'anaviy qadriyatlar tizimida ona — fidoyilik, mehribonlik, bag'rikenglik timsolidir. Ikkinchidan, zamonaviy romanlarda ona — shaxs sifatida, o'z orzu-istaklari, intilishlari, ichki ziddiyatlari va qiyinchiliklari bilan tasvirlandi. Uchinchidan, ona siymosi davr muhiti asosida shakllantirildi, ijtimoiy mehnat faoliyatigagina diqqat qilindi. To'rtinchidan, zamonaviy romanlarda ona — o'zining fazilatlarini, qarashlari bilan alohida ajralib turuvchi shaxs sifatida talqin etildi va etilmoqda.

**ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (JIITEPATYPA И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** O'tgan asrning birinchi choragida yaratilgan Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi ona siymosiga nazar tashlar ekanmiz, haqsizlik, adolasizlikdan iztirob chekayotgan ona siymosining badiiy talqinlari o'quvchi qalbini larzaga soladi: "Bir kun Zebining juda jiddiy bir chehra bilan: — Otam kulmasa ekanda! — deganini eshitib, Qurbonbibi koyib bergan edi. Shu haqiqatni aytgani uchun qizidan aylana-oshkor koyingan Qurbonbibi, bu haqiqatni o'zi o'z ko'nglida necha marta takrorlagan bo'lsaykin?" Til bilan birovning aybini aytish oson, o'z tili bilan o'z aybini aytadiganlar juda kam" [3].

Tasvirlarga nazar tashlar ekanmiz, Qurbonbibining qalbidan kechayotgan iztiroblarni guvohi bo'lamiz, o'z farzandi achchiq haqiqatni bayon etib qo'ydi, ammo onasi uning qalbidan kechayotgan iztiroblarni anglasada, ota haqida bu gaplarni qayt etish mumkin emasligini anglatadi. Ammo yillar davomida shunday inson bilan hayot kechirib kelayotgan onaning tuyg'ulari bilan hech kim hisoblashmasdi. Hatto muhit ham bunga imkon bermaganligini anglashimiz zarur.

"Kecha va kunduz" romanida onalar siymosining turli jihatlari, ularning xarakter qirralari voqealar rivojida yana ham teranlik kasb etib boradi. Inson dunyoga kelar ekan, uning qalb amiri ham o'zida namoyon bo'lib tiradi. Razzoq so'fining kam gapligidan emas, uning dunyoga kelishi ham shunday bo'lganligini yaxshi angelaydi, angelaydiyu, buning ba'zi qirralarini ayyorona ochib tashlaydi. Qurbonbibini fitna deb chaqirishi, undagi xarakterni yanada yaxshiroq anglash imkonini beradi: "...Qurbonbibini hamma vaqt "fitna" deb

chaqiradi: "Fitna, sallamni ber!», "Fitna, qiz o'lguring qani?", "Fitna, puldan uzat!" Qurbonbibi so'figa achchiq qilib bo'lsami yo o'zining yaratilish xamirida shu narsa bormi, har qalay fitnalikdan, makr va firibdan xoli emas. Erining xotin-xalaj oldida uncha gapirmaganiga uncha xafa bo'lmasa ham, lekin o'z halol xotini oldida gapirmaganiga kuyadi va shu kuyish oldida gapirmaganiga ucha xafa bo'lmasa ham, lekin o'z halol xotini oldida gapirmaganiga kuyadi va shu kuyish orqasida firib, yo'li bilan so'fini gapirtiradi, ba'zida tillarini burro qildirib sayratadi" [3].

**MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).** Inson qalbidagi iztiroblarni haqqoniy yoritish asnosida, ona qalbini, ruhiyatini, uning psixologik kechinmalarini ochib bergan. O'tgan asr boshlaridagi ijtimoiy muhitni ham, onaning o'z davridagi qarashlarini, oilaviy muhit va uning ma'lum bir qirralarini haqqoniy ochishga asos bo'lgan. Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov bayon qilganidek: "Haqiqiy iste'dod egasi hech qachon jo'ngina formulaga tushadigan yuzaki odam bo'lmaydi. Uning hayoti hamisha oshkora va pinhona kurashga, kashfiyotlarga va yo'qotishlarga, dramalar va fojialarga to'la bo'ladi. Chinakkam iste'dod egasi muntazam izlanishda bo'lgani uchun, hamisha haqiqat qidirib yashagani uchun birida insonning ulug'ligi oldida boshi ko'kka yetguncha g'ururlanib kekkaysa, birida insonning razolati va tubanligi qarshisida hafsalasi pir bo'lib, umidsizlikka tushmog'i mumkin" [5].

So'z san'atining mohiyatini anglaganligi uchun ham, Cho'lpon o'z davrining xususiyatlarini, inson qalbidagi yashirin tuyg'ularni mahorat bilan badiiylikka singdiradiki, bunda Qurbonbibining o'z olami borligini, shuning uchun ham "fitna" asosida so'fini gapirtirishga jazm qilishi bejiz emasligini teranroq his eta boshlaymiz. Qurbonbibi xarakterida o'ziga xoslik, so'fini gapirtirishgina emas, uning ma'naviy olamini ochishga ham asos bo'lgan. Undagi bu fazilatni anglay boshlagan kitobxon Qurbonbibining so'fi xarakterini, uning ruhiy olamini juda yaxshi kashf etganligi bilan izohlanadi.

Asardagi voqealar silsilasi murakkablik kasb etib borar ekan, Qurbonbibining fazilatlarini, ruhiy olami haqqoniy tarzda ochiladi. Undagi fazilatlar, oilaga, farzandga bo'lgan sadoqatda yanada teranlashadi. Buning esa asosida badiiy xarakter yaratish mahorati mujassamlashgan. Chunki muhit insonni shakllanishiga o'z ta'sirini

ma'lum darajada o'tkazgani kabi, ona qalbidagi ezgulikni, alam va iztirobni his etish tamoyillari asosida shakllanib boradi.

Shu o'rinda adabiyotshunos Dilmurod Quronovning mulohazalarini keltirishni lozim topdik: "... asar personajlari o'zlarining strukturaviy aloqalari doirasi va yo'siniga ko'ra jiddiy farqlanadilar. Aytaylik, romandagi qator personajlar strukturaviy jihatdan faqat vertikal aloqaga kirishadilar, ya'ni yetakchi qahramonlardan birigagina bog'lanadilar: u harakat qilayotgan muhitni tavsiflash, uning xarakter qirralarini ochishga, to'ldirishga, asoslashga xizmat qiladilar. Tabiiyki, bu personajlarning asar butunligi bilan bog'lanishi o'sha yetakchi qahramon orqaligina amalga oshadi. Zebi mikrosistemasida harakat qiluvchi Qurbonbibi, Salti, Enaxon, O'lmasjonlar ayni shu xil personajlar sirasiga kiritilishi mumkin" [4].

**NATIJALAR (PEZYULTATY / RESULTS).** "Adabiy asarning mazmunidagi salmoqdorlik, asarning o'z zamonasi uchun muhim bo'lgan g'oyalar bilan sug'orilganligi yozuvchining xalq hayoti bilan aloqasiga, xalq hayotida bo'layotgan muhim hodisalarni o'z diqqat markazida tutishiga va tasvirlab bera olishiga bog'liqdir. Haqiqiy yozuvchi o'z ijodida xalq uchun muhim bo'lgan masalalarni chetlab o'tolmaydi. Yozuvchi talantining masshtabi (miqyosi) o'z zamonasi uchun, butun insoniyat uchun muhim hayotiy masalalarni ehtiros va badiiy mahorat bilan o'rta qo'ya bilishida ko'rinadi" [1]. Ijodkor olami, borliqni, insonni anglashi natijasida, uning badiiy siymosini gavdalanitirar ekan, ona siymosida ham ana shu xususiyatlar yaxlitlashib boradi. "Kecha va kunduz" romanidagi obrazlar olamini anglashda bevosita, Qurbonbibi obrazining o'zni, badiiy voqelikni rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi bilan izohlash mumkin.

Binobarin, ijtimoiy aloqa hayotiy ziddiyatlarni hosil qiladigan muhim omil sifatida e'tirof etiladi, chunki xarakter ruhiyati va jamiyat ehtiyoji, shakllangan an'ana va barqaror mezonlar, tahlil teranligi va tasvir qabariqligi o'zaro birikib ketadi. Inson hayoti aslida voqelik teranligini hosil qiladigan ruhiy kechinma, tasavvur va taassurotlar yig'indisidan iborat. Hodisot uzviyligini bir-biriga mantiqan payvandlash, muayyan qismlarni yetakchi g'oyaviy markazga olib chiqish bilan izohlanadi. Ijodiy niyatning muntazam o'zgarib turishiga hamohang ichki tugallikni ta'minlash ijodkor

adabiy mahoratini taqozo etadi. Ana shu xususiyatlarni uzviy birligini ta'minlashda roman syujetidan o'rin olgan obrazlar galereyasining dialektik birligi, Qurbonbibi obrazining matndagi ahamiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

**XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).** Adabiyotshunos D.Quronov romandagi obrazlar galereyasini tahlil qilar ekan quyidagi tushunchalarni ilgari suradi: "Ayni paytda, ularning gorizantaliga mazmuniy-strukturaviy aloqalari ham mavjudki, bunda ular o'zlari bog'lanayotgan unsurlarni metaforik, metonimik yoxud kontrasli munosabat asosida to'ldiradilar, izohlaydilar, asoslaydilar. Masalan, Qurbonbibi mazmuniy-strukturaviy jihatdan bog'lanayotgan personajlarni olaylik: Saltining onasi – Umrinisobibi – O'lmasjonning onasi – Enaxonning onasi – Xadichaxon – Sultonxonning onasi – Miryoqubning xotini. Bu personajlarning xatti-harakatlari yagona motiv – onalik, ayni paytda, konkret mikromuhit ta'sirida yuzaga kelgan o'ziga xos farqlar ham kuzatiladi" [4].

Haqli ta'kidlanganidek, mikromuhit obrazlar olamini yoritishga, uning turfa xil xususiyatlarini ochib berishga imkon berishi bilan bir qatorda, asar voqealarini rivojini ham ta'minlashga, asosiy qahramoning xarakter xususiyatlarini yoritishda ham badiiy funksiyani bajarishi oydinlashadi. Qurbonbibi obrazidagi o'ziga xoslik ham shu jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonni anglash bilan birgalikda shaxslar olamini ochilishiga, onalik hissini teranroq anglashga bevosita xizmat qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 71 b.
2. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. Kecha va kunduz. Roman. Yorqinoy. Pyesa. She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
3. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. Kecha va kunduz. Roman. Yorqinoy. Pyesa. She'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
4. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 269 b.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. – 88 b.